

Od qavmining qaysarligi



15:00 / 06.02.2021 3443

Od qavmi bularning barchasini eshitdilar-u, lekin iymon keltirmadilar. Hudning nasihati va hikmati ular ichida zoe bo'ldi.

Ular: «Ey Hud dalil va isboting yo'q-ku? Axir, sening yangi so'zingni deb eski ilohlarimizni tark qilmaymiz-ku? Otalarimiz ibodat qilib kelgan ilohlarni, bitta so'z bilan tark etamizmi? Hech qachon! Hech qachon! Tark etmaymiz. Ey Hud! Sen bizning ilohlarimizga ishonmaysan va ulardan qo'rqmaysan. Biz ham sening ilohingga ishonmaymiz va uning azobidan qo'rqmaymiz. Biz seni ko'p azob haqida gapirganingni eshityapmiz. Ey Hud! Qani bu azob? U qachon keladi?» deyishdi.

Hud: «**Albatta, ilm** (ya'ni azob kelish xabari) **faqat Allohning huzuridadir. Va albatta, men yaqqol ogohlantiruvchiman, xolos**» (*Mulk surasi, 26-oyat*), dedi.

Od qavmi esa: «Albatta biz bu azobni kutyapmiz va uni ko'rishga mushtoqmiz», deyishdi. Hud ularning jur'atlaridan ajablanib, nodonliklaridan afsuslandi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad